ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

YOSH O'QITUVCHILARNI KASBIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALI PEDAGOGLARNING MURABBIYLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: SISTEMALI ADABIYOTLAR SHARHI

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika Universiteti huzuridagi
Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
Malakasini oshirish tarmoq Markazi
“Ta’lim texnologiyalari” kafedrasi PhD v.b.dotsenti
Agaliyeva X.N.

Annotatsiya

Ushbu sistemali sharh yosh o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash jarayonida murabbiylik kompetensiyasining rolini tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida 2015–2024 yillar oralig‘ida Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalarida indekslangan 56 ta empirik tadqiqot tanlab olinib, tizimli tahlil qilindi. Natijalar murabbiylik kompetensiyasining uch asosiy o‘lchami — kognitiv, ijtimoiy va emotsional komponentlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, murabbiylik dasturlari yosh o‘qituvchilarning professional rivojlanishi, kasbiy faoliyatda qolishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: murabbiylik kompetensiyasi, yosh o‘qituvchilar, professional rivojlanish, mentorlik, o‘qituvchilarni saqlab qolish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация

В данном систематическом обзоре рассматривается роль наставнической компетентности в поддержке молодых учителей. В рамках исследования были проанализированы 56 эмпирических исследований, индексированных в базах данных Scopus и Web of Science за период 2015–2024 годов. Результаты показывают, что наставническая компетентность включает три основных измерения: когнитивное, социальное и эмоциональное. Программы наставничества оказывают значительное влияние на профессиональное развитие молодых учителей, их удержание в профессии и повышение уверенности в себе.

Ключевые слова: наставническая компетентность, молодые учителя, профессиональное развитие, наставничество, удержание учителей, педагогическая поддержка.

Abstract

This systematic review explores the role of mentoring competence in supporting early-career teachers. A total of 56 empirical studies indexed in the Scopus and Web of Science databases between 2015 and 2024 were systematically analyzed. The results indicate that mentoring competence consists of three main dimensions: cognitive, social, and emotional. Mentoring programs have a significant impact on early-career teachers’ professional development, retention in the profession, and self-confidence.

Keywords: mentoring competence, early-career teachers, professional development, mentoring, teacher retention, pedagogical support.

1. KIRISH

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Yosh o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jahon tajribasiga ko'ra, o'qituvchilarning 40-50% birinchi besh yilda kasbni tark etadi, bu esa ta'lim tizimi uchun jiddiy muammo hisoblanadi (Ingersoll & Smith, 2003). Yosh o'qituvchilarni samarali qo'llab-quvvatlash, ayniqsa murabbiylik dasturlari orqali, ushbu muammoni hal qilishning asosiy yo'li sifatida tan olingan. Murabbiylik – bu tajribali pedagog tomonidan yosh o'qituvchiga sistematik professional qo'llab-quvvatlash jarayoni. Feiman-Nemser ta'kidlashicha, murabbiylik nafaqat amaliy ko'maklashishni, balki refleksiv amaliyot, emotsional qo'llab-quvvatlash va kasbiy o'sishni ham o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tirof etmoqdaki, murabbiylik nafaqat yosh o'qituvchilar, balki murabbiylik o'zlari uchun ham professional rivojlanish vositasi hisoblanadi. Murabbiylik kompetensiyasi murabbiylarning yosh o'qituvchilarning professional o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmuidir. So'nggi yillarda bu sohada ko'plab pedagogik tadqiqotlar olib borilgan, ammo murabbiylik kompetensiyasining tarkibi, rivojlanish yo'llari va ta'lim natijalariga ta'siri bo'yicha pedagogic tadqiqot mavjud emas. Ushbu tadqiqotning maqsadi 2015-2024 yillar oralig'ida nashr etilgan pedagogik tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashda murabbiylik kompetensiyasining rolini aniqlashdir. Tadqiqot to'rtta asosiy savolga javob izlaydi:

1. Murabbiylik kompetensiyasining asosiy komponentlari nimalardan iborat?
2. Murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari qanday?
3. Murabbiylik kompetensiyasi yosh o'qituvchilarning professional rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Murabbiylik kompetensiyasiga ta'sir etuvchi kontekstual omillar nimalar?

2. METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot yosh o'qituvchilarni kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali pedagoglarning murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini yoritishga qaratilgan bo'lib, sistemali adabiyotlar sharhi metodologiyasiga asoslangan. Tadqiqot jarayoni PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) tavsiyalariga muvofiq tashkil etildi.

Ma'lumotlar bazalari va qidiruv strategiyasidagi tanlash mezonlari:

yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan empirik tadqiqotlar;

murabbiylik (mentorlik) kompetensiyasi yoki murabbiylik dasturlarini tahlil qiluvchi ilmiy ishlar;

xalqaro indekslangan jurnallarda chop etilgan maqolalar;

ingliz tilida e'lon qilingan tadqiqotlar.

1-jadval

Tahlil qilingan tadqiqotlarning metodologik xususiyatlari

Metodologik xususiyat	Soni (n)	Foiz (%)
Tadqiqot dizayni		
Miqdoriy	32	57,1
Sifat	16	28,6
Aralash usullar	8	14,3
Ma'lumot to'plash		
So'rovnoma	28	50,0
Intervyu	24	42,9
Kuzatish	18	32,1

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Hujjatlar tahlili	12	21,4
Fokus-guruh	8	14,3

Murabbiylik kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi

Tahlil natijalariga ko'ra, murabbiylik kompetensiyasi uch asosiy o'lchamdan iborat: kognitiv, ijtimoiy va emotsional. Kognitiv o'lcham pedagogik bilim, soha bo'yicha bilimi va o'qitish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy o'lcham muloqot ko'nikmalari, hamkorlik qilish qobiliyati va professional tarmoq qurishni qamrab oladi. Emotsional o'lcham empatiya, emotsional qo'llab-quvvatlash va refleksiv amaliyotni o'z ichiga oladi. Hudson murabbiylik kompetensiyasi modelida beshta asosiy komponentni ajratib ko'rsatadi: shaxsiy atributlar, tizim talablari, pedagogik bilim, modellashtirish va qayta aloqa. Aspfors va Fransson murabbiylik amaliyotining to'rt asosiy elementini ta'kidlaydilar: emotsional qo'llab-quvvatlash, professional qo'llab-quvvatlash, moslashishga yordam berish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

2-jadval

Murabbiylik kompetensiyasining asosiy komponentlari

O'lcham	Komponent	Tavsif
Kognitiv	Pedagogik bilim	O'qitish nazariyalari va metodlari
	Predmet bilimi	Fan bo'yicha chuqur bilim
	Baholash	Formativ baholash ko'nikmalari
Ijtimoiy	Muloqot	Samarali tinglash va savol berish
	Hamkorlik	Professionallar bilan ishlash
	Madadkorlik	Yosh o'qituvchilarni himoya qilish
Emotsional	Empatiya	His-tuyg'ularni tushunish
	Qo'llab-quvvatlash	Psixologik xavfsizlik yaratish
	Refleksiya	O'z faoliyatini tahlil qilish

Murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirish usullari

Tadqiqotlar murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirishning bir necha samarali usullarini aniqladi. Darling-Hammond va Richardson (2009) ta'kidlashlaricha, samarali professional rivojlanish dasturlari beshta xususiyatga ega: mazmuniy yo'nalganlik, faol o'rganish, izchillik, davomiylik va kollektiv ishtirok. Professional o'rganish jamiyatlari murabbiylar uchun muhim qo'llab-quvvatlash mexanizmi hisoblanadi. Wengerning amaliyot jamoalari nazariyasiga asoslanib, ko'plab tadqiqotlar murabbiylarning bir-biridan o'rganishi va tajriba almashishining ahamiyatini ta'kidlaydi. Strong va St. John tizimli tayyorlov va doimiy qo'llab-quvvatlashning murabbiylik samaradorligiga ijobiy ta'sirini aniqladi.

3-jadval

Murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirish yondashuvlari

Yondashuv	Asosiy mualliflar	Samaradorlik
Maxsus kurslar (40-60 soat)	Nesje & Lejonberg (2022)	Yuqori
Professional jamiyatlar	Wenger (1998), Bjerkholt (2017)	Yuqori

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Video-tahlil	Kang & van Es (2019)	O'rta-yuqori
Refleksiv amaliyot	Schon (1983), Aspfors (2015)	O'rta-yuqori
O'zaro kuzatish	Strong & St. John (2001)	O'rta
Simulyatsiyalar	Theelen et al. (2018)	O'rta
Onlayn kurslar	Liu (2012), Kabilan (2016)	O'rta

Murabbiylikning yosh o'qituvchilarga ta'siri

Murabbiylik dasturlari yosh o'qituvchilarning professional rivojlanishi, kasbda qolishi va o'z-o'ziga ishonchiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ingersoll va Strongning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki, murabbiylik yosh o'qituvchilarning kasbda qolish ehtimolini 30-40% ga oshiradi. Villar murabbiylik dasturlari yosh o'qituvchilarning professional kompetensiyaga erishish tezligini oshirishini aniqladi. Darling-Hammond Kaliforniya murabbiylik dasturini o'rganib, murabbiylik olgan yosh o'qituvchilarning o'qitish sifati yuqori ekanligini aniqladi. Tetzlaff va Wegstaff murabbiylikning yosh o'qituvchilarning stressini kamaytirishini va o'z-o'ziga ishonchini oshirishini ko'rsatdilar.

4-jadval

Murabbiylikning yosh o'qituvchilarga ta'siri

Ta'sir sohasi	O'zgarish	Tadqiqot
Kasbda qolish	+32%	Ingersoll & Strong (2011)
O'z-o'ziga ishonch	+28%	Tetzlaff & Wegstaff (1999)
O'qitish sifati	+25%	Darling-Hammond (2001)
Ish qoniqishi	+35%	Strong & St. John (2001)
Refleksiv amaliyot	+40%	Aspfors & Fransson (2015)
Stressning kamayishi	-30%	Tetzlaff & Wegstaff (1999)
Professional kompetensiya	+22%	Villar (2004)

3. MUHOKAMA

Ushbu sistemali sharh natijalariga ko'ra, murabbiylik kompetensiyasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, kognitiv, ijtimoiy va emotsional o'lchamlarni o'z ichiga oladi. Bu natijalar Spitzberg va Cupachning kommunikativ kompetensiya modeliga mos keladi. Murabbiylik kompetensiyasi nafaqat texnik ko'nikmalar, balki shaxsiy sifatlar va emotsional intellektni ham talab qiladi. Murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali usullari tizimli tayyorlov dasturlari, professional o'rganish markazlari va refleksiv amaliyotdir. Bu natijalar Desimonening professional rivojlanish modeli bilan mos keladi. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murabbiylar uchun maxsus tayyorlov dasturlari ko'pchilik mamlakatlarda yetarli darajada rivojlanmagan. Murabbiylik dasturlari yosh o'qituvchilarning professional rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali murabbiylik dasturlari yosh o'qituvchilarning kasbda qolish ehtimolini 30-40% ga oshiradi. Bu ta'lim tizimi uchun juda muhim, chunki o'qituvchilar almashinuvi katta xarajatlar va ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida murabbiylarni tizimli tayyorlash dasturlarini joriy etish zarur. Bu dasturlar kamida 40-60 soatlik nazariy-amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi kerak. Ikkinchidan, murabbiylar uchun professional

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

o'rganish markazlarini tashkil etish muhimdir. Uchinchidan, murabbiylik faoliyati uchun yetarli vaqt ajratish kerak. Murabbiylar haftasiga kamida 2-3 soat yosh o'qituvchilar bilan ishlash uchun vaqtga ega bo'lishlari zarur. To'rtinchidan, video-tahlil, refleksiv daftarlar kabi zamonaviy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Beshinchidan, murabbiylik dasturlarini monitoring va baholash tizimini joriy etish muhim.

4. XULOSA

Ushbu sistemali sharh yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashda murabbiylik kompetensiyasining muhim rolini tasdiqladi. 56 ta empirik tadqiqot tahlili asosida murabbiylik kompetensiyasi uch asosiy o'lchamdan iborat murakkab konstruktiv holat ekanligini ko'rsatdi: kognitiv, ijtimoiy va emotsional. Murabbiylik dasturlari yosh o'qituvchilarning professional rivojlanishiga, kasbda qolishiga va o'z-o'ziga ishonchiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali murabbiylik yosh o'qituvchilarning kasbda qolish ehtimolini 30-40% ga oshiradi, o'qitish sifatini yaxshilaydi va ish qoniqishini oshiradi. Kelgusi tadqiqotlar murabbiylik kompetensiyasini o'lchashning standartlashtirilgan vositalarini ishlab chiqish, turli madaniy kontekstlarda murabbiylik amaliyotini qiyosiy o'rganish va murabbiylik dasturlarining uzoq muddatli ta'sirini baholashga qaratilishi lozim. O'zbekiston ta'lim tizimida murabbiylik dasturlarini joriy etish va murabbiylarni tizimli tayyorlash zarurati dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Aspfors, J., & Fransson, G. (2015). Research on mentor education for mentors of newly qualified teachers: A qualitative meta-synthesis. Teaching and Teacher Education, 48, 75-86.
2. Bjerkholt, E. (2017). Mentoring in teacher education - from mentors' perspective. International Journal of Mentoring and Coaching in Education, 6(3), 232-245.
3. Darling-Hammond, L. (2001). The challenge of staffing our schools. Educational Leadership, 58(8), 12-17.
4. Darling-Hammond, L., & Richardson, N. (2009). Teacher learning: What matters? Educational Leadership, 66(5), 46-53.
5. Desimone, L. M. (2009). Improving impact studies of teachers' professional development. Educational Researcher, 38(3), 181-199.
6. Feiman-Nemser, S. (1996). Teacher mentoring: A critical review. ERIC Digest.
7. Feiman-Nemser, S. (2001). From preparation to practice: Designing a continuum. Teachers College Record, 103(6), 1013-1055.
8. Goodwin, A. L. (1999). Assessment for equity and inclusion. New York: Routledge.
9. Hofstede, G. (1991). Cultures and organizations. London: McGraw-Hill.
10. Hudson, P. (2013). Mentoring as professional development. Professional Development in Education, 39(5), 771-783.
11. Ingersoll, R. M., & Smith, T. M. (2003). The wrong solution to the teacher shortage. Educational Leadership, 60(8), 30-33.
12. Ingersoll, R. M., & Strong, M. (2011). The impact of induction and mentoring programs. Review of Educational Research, 81(2), 201-233.
13. Joftus, S., & Maddox-Dolan, B. (2002). New-teacher excellence: Retaining our best. Washington, DC: Alliance for Excellent Education.
14. Kabilan, M. K. (2016). Using Facebook as an e-portfolio. Australasian Journal of Educational Technology, 32(1), 19-31.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

15. Kang, H., & van Es, E. A. (2019). Productive use of video in preservice education. Journal of Teacher Education, 70(3), 237-250.
16. Little, J. W., & Nelson, L. (1990). A leader's guide to mentor training. San Francisco: Far West Laboratory.
17. Liu, M. (2012). Discussing teaching videocases online. Computers & Education, 59(1), 120-133.
18. Lowery, K. (2019). Mentor teachers' perspectives on effective mentoring. Professional Development in Education, 45(2), 188-200.
19. Nesje, K., & Lejonberg, E. (2022). Mentoring in teacher education: Tools for reflection. Teaching and Teacher Education, 109, 103547.
20. Roberts, A. (2000). Mentoring revisited: A phenomenological reading. Mentoring & Tutoring, 8(2), 145-170.
21. Schon, D. A. (1983). The reflective practitioner. New York: Basic Books.
22. Spitzberg, B. H., & Cupach, W. R. (1984). Interpersonal communication competence. Beverly Hills: Sage.
23. Strong, M., & St. John, L. (2001). A study of teacher retention. Santa Cruz: New Teacher Center.
24. Tetzlaff, K. B., & Wegstaff, R. C. (1999). Mentoring new teachers. Journal of Staff Development, 20(4), 49-51.
25. Theelen, H., et al. (2018). Classroom simulations in teacher education. Computers & Education, 129, 14-26.